

PhD Azamat Alikulov
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

CHAKANA INVESTORLARNING KAPITAL BOZORIDA FAOLLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Annotatsiya. Maqolada kapital bozorida chakana investorlarning faolligiga ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. O'rganishlar natijasida ushbu omillar bir tizimga keltirilgan hamda O'zbekistonda kapital bozorida chakana investorlarning faolligini oshirish bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kapital bozori, chakana investor, xarid qobiliyati pariteti, savdo mexanizmi, moliyaviy savodxonlik, bo'linuvchi aksiyalar, kriptovalyuta, shaxsiy portfolio.

FACTORS AFFECTING THE ACTIVITY OF RETAIL INVESTORS IN THE CAPITAL MARKET

Abstract. The article studies the factors influencing the activity of retail investors in the capital market. As a result of the research, these factors were brought into a single system, and based on the experience of foreign countries, scientific proposals and practical recommendations were developed to increase the activity of retail investors in the capital market in Uzbekistan.

Keywords: capital market, retail investors, purchasing power parity, trading mechanism, financial literacy, fractional shares, cryptocurrency, personal portfolio.

Kirish

Investitsion faoliyatning jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy o'sishni samarali milliy kapital bozorisiz amalga oshirish mumkin emas. «Rivojlangan milliy kapital bozori esa iqtisodiyotning o'sishiga hamda mulkdorlar jamiyatini shakllantirishga yordam beradi» [1] va aksincha, mulkdorlar sinfining iqtisodiyotda mavjudligi kapital bozorida chakana investorlar faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir shaxs o'z moliyaviy holatini yaxshilash va daromadini oshirish uchun shaxsiy mablag'larini investitsiyalarga yo'naltiradi. Bugungi kunda bu faoliyatni moliya bozorisiz amalga oshirish bir muncha murakkab masala bo'lib, hech bo'lmaganda resurslar transaksiyasini bank tizimi orqali amalga oshirish zarurati yuzasidan moliya bozoriga murojaat qilishiga to'g'ri keladi. Moliya bozorining bugungi rivojlanish tendensiyalari shuni ko'rsatmoqdaki

dunyo aholisining katta qismi (asosan rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda) ortiqcha moliyaviy resurslarini kapital bozori orqali ko'paytirishga va jamg'armalarini fond instrumentlariga yo'naltirishga harakat qilmoqda. Xususan, AQShda uy xo'jaliklarining 52 % aksiyalar bozoriga bevosita yoki bilvosita investitsiya qiladi. Buning asosiy sabablari jahonda fond instrumentlarining istalgan toifadagi (daromadga munosabati, riskga munosabati, hududni hisobga oluvchilar va hatto investorning diniy mansubligi) investorlarga mo'ljallangan moliyaviy instrument turlarining mavjudligi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Chakana investorlar o'z jamg'armalarini investitsiyalarga yo'naltirishlari orqali o'z kapitalini ko'paytirishni maqsad qilgan holda iqtisodiyot tarmoqlarida kapital harakatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari chakana investorlar Kapital bozoriga investitsiya yo'naltirishining yana bir ijobiy jihati shundaki, investor o'zining kelgusidagi iqtisodiy farovonligi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. So'ngi yillarda moliyaviy aktivlar bahosining xalqaro bozorda doimiy o'sish tendensiyasi hisobidan chakana investorlarning moliya bozoriga kapital yo'naltirishlari faollashib bormoqda. Moliya bozorida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar (banklar, fond birjalari, sug'ruta kompaniyalari, brekerlik tashkilotlari, va h.k.) o'z mijozlari sonini, hizmatlar hajmini oshirish maqsadida kundan-kunga yangi innovasion texnologiyalar, yangi hizmat turlariva yangi savdo platformalarini ishlab chiqib bozorda taklif etayotganlari ijobiy baholanmoqda. Ammobuning natijasida axborot manbai kengayib, bozorda investorlar uchun ishonchli ma'lumotlarni topish borgan sari qiyinlashib, ularni himoya qilish imkoniyatlari pasayib bormoqda. Bu kabi riskli holatlarni oldini olish uchun esa keng aholi qatlamida moliyaviy savodxonlik darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etishi hech kimga sir emas. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda ushbu maqolada kapital bozorida chakana investorlarning faolligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tizimlashtirib sodda ko'rinishlarda tahlil qilishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar tahlili

Rossiyalik iqtisodchi B.Podgorniy MDH mamlakatlari xususan Rossiya federatsiyasiyasi fond bozorining rivojlanish yo'llarini va fond bozori orqali milliy iqtisodiyotga mulkdorlar kapitalini jalb qilish bo'yicha izlanishlar olib borgan[1].

Shvedsiyalik olimlar Johan Almenberg va Anna Dreberlar tomonidan fond bozorida chakana investorlarning faolligi ta'sir etuvchi omillar o'rganilgan. O'z ilmiy ishlarida chakana investorlarning fond bozorida ishtirokini o'rganishida ularning yoshi va jinsi bo'yicha faolligiga e'tibor qaratilgan. Bundan tashqari

chakana investorlarning moliyaviy savodhonligining fond bozorida ishtirok etish etishlariga ko'ratadigan ta'sirlarini o'rganishgan [2].

Xitoylik olim Ming Gao ushbu mavzu bo'yicha o'zining ilmiy ishlarida fond bozorida uy xo'jaliklarining ishtirokini o'rgangan. Bunda u uy xo'jaliklarining fond bozoriga investitsiyalar kiritish hohishlariga ta'sir etuvchi omillarga ko'proq e'tibor qaratgan. Bunda olim tomonidan olib borilgan tadqiqotda uy xo'jaliklarining daromadlari ularning fond bozoridagi faolligiga ta'sirini o'rganishga e'tibor qaratilgan[3].

Mahalliy olimlarimizdan N.M.Maxmudov hamda N.R.Avazovlar o'zlarining ilmiy risolalarida O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari bo'yicha izlanishlar olib borishgan. Bunda mualliflar investitsion jazobadorlik, investitsiyani sohalar vaiqtisodiyotga yo'naltirishga ta'sir etuvchi omillar borasida izlanishlar olib borishgan[4].

S.E.Elmirzayev izlanishlarida rivojlangan davlatlarda dividend siyosati, korporativ tuzilmalar faoliyatini o'z mablag'lari va qarz mablag'lari hisobiga moliyaviy ta'minlash masalalari, korxonalar faoliyatiga xorijiy kapitalni jalb etish yo'llari, kapital bahosini aniqlash, moliyaviy aktivlar daromadliligini baholash yo'nalishlari kabi masalalarni ham nazariy, ham amaliy jihatdan yoritib bergan[5].

F.T.Muxamedov ilmiy izlanishlarida fond birjalarida savdo mexanizmlarini o'rganishga e'tibor qaratgan. Savdo mexanizmlarining savdo jarayonlarining ishtirokchilar uchun qulayligi, fond bozoriga yo'naltiriladigan kapital hajmiga ta'siri, birja savdo tizimlari orqali mamlakat iqtisodiyotiga hamda fond bozoriga yo'naltirilgan kapital hajmi o'rganilgan[6].

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada kapital bozorida chakana investorlar faolligiga ta'sir etuvchi omillar xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda taqqoslash, ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya, analiz va sintezmetodlaridan foydalanilgan.


Tahlil va natijalarni muhokamasi

Kapital bozoriga investorlarni jalb qilishda asosiy masala bu instrumentning daromadliligi va likvidligi bo'lsa ushbu jihatlarga qo'shimcha ravishda kapital bozorida investor uchun yaratilgan shart-sharoitlar ham muhim ahamiyat kasb etishi shubhasiz. Ya'ni, investorlarni ishonchli axborotlar bilan ta'minlanish, savdo faoliyati uchun qulay platformalar joriy etish, savdo qoidalari va mexanizmlarini optimallashtirish shular jumalasidandir. So'ngi yillarda, O'zbekistonda axborot erkinligi (ochiq ma'lumotlar)ga katta urg'u

berilmoqda. Bu borada Korporativ axborot yagona portalisaytining ishga tushirilishi investorlar uchun O'zbekistondagi kompaniyalar haqida ma'lumotlar olish uchun muhim axborot manbai bo'lib hizmat qilmoqda. Ammo, ushbu saytda ma'lumotlar o'z vaqtida yangilanmayqolayotganligi tizimli ishlarni joriy qilishni talab qilmoqda.

Kapital bozorida savdo plataformalarini va mexanizmlarini takomillashtirish va investorlarga qo'shimcha imkoniyatlar yaratish maqsadida 2012 yilda "Toshkent" RFBning 25 foiz (-1 ta) aksiyasi evaziga Koreya fond birjasining "Yagona dasturiy-texnik majmuasi" olib kelindi"[10]. Ushbu majmuada investorlar uchun masofadan savdolarida qatnashish imkoniyatini yaratib beradigan HTS (Home trade system) va MTS (Mobile trade system) dasturiy ta'minotlari savdo jarayonlariga integratsiya qilindi. Bundan tashqari, Respublika valyuta birjasi savdolari ishtirokchilariga yanada qulayliklar yaratish maqsadida 2022 yilda "UZCEmobile GB" mobil ilovasi ishga tushirildi. Ilovada "davlat qimmatli qog'ozlari bozoridagi auksionlar parametrlariga oid ma'lumotlarni ko'rish, kiritilgan buyurtmalarni bekor qilish, davlat qimmatli qog'ozlarini sotish yoki sotib olish bo'yicha bitimlar tuzish, REPO bitimlarini amalga oshirish va ularning natijalarini ko'rish, birja ma'lumotlari – kotirovkalar, birja yangiliklari va tahliliy materiallarni yoki ushbu bozorga oid boshqa birja ma'lumotlarini olish"[11] imkoniyatlari bo'lib, qimmatli qog'ozlar bilan savdolarini amalga ishirish uchun joriy etilgan yana bir qulaylik bo'ldi desak xato bo'lmaydi. Ammo yuqorida aytib o'tilgan savdo platformalarining hech birida investorlar uchun mustaqil savdolarida qatnashish imkoniyatini yaratadigan "DMA" (Direct Market Access-elektron mablag'larni boshqarish, savdolar bo'yicha buyurtmalar berish hamda birja savdolariga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatini yaratadigan va qimmatli qog'ozlar bilan kunlik operatsiyalarni osonlashtiradigan tizim)ning mavjud emasligi moliyaviy savodxonligi darajasi yaxshi bo'lgan, kapital bozoriga investitsiyalar kiritishni hojlovchi aholi qatlami uchun bir muncha noqulayliklar tug'dirmoqda. Chunki bugungi kunda kapital bozoridagi raqobat muhitining rivojlanishi natijasida xalqaro amaliyotda eng yuqori reytingdagi "TD Ameritrade, Fidelity, Webull, SoFi, tastyworks, Ally"[12] kabi ilovalar orqali fond bozori savdolarida qatnashishda onlayn avtorizatsiya qilish imkoniyati mavjudligi, komission to'lovlar talab qilinmasligi, brokerlik kompaniyalarining vositachilik haqlari nol "0"ga tushirilganligi hamda qimmatli qog'ozlarni sotuvchisi va haridori o'rtasida faqat fond birjasi texnologiyalari mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

Yuqorida fikr yuritganlarimiz kapital bozoriga investitsiyalarni yo'naltirishda chakana investorlarning ishonchli faoliyat yuritishlariga ta'sir ko'rsatadigan omillarni 3 guruhga bo'lgan holda bir tizimga keltirib quyidagi rasmda ko'rib chiqamiz.



1-rasm. Chakana investorlarni kapital bozorida keng imkoniyatga ega bo'lishiga ta'sir ko'rsatuvchi "3I"*omillari[13]

* Xorijiy manbalar yordamida muallif tomonidan tayyorlandi(so'zlarning bosh harflari "I" bo'lganligi sababli muallif tomonidan "3I" tarzda belgilandi).

Yuqorida keltirilgan omillarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bugungi kunda chakana investorlar kapital bozorida faol bo'lishlari, faoliyat olib borishlari va muvaffaqiyatga erishishlarida ushbu omillar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu omillarning har birini quyida qisqacha izohlashga harakat qilamiz.

Ilm:

• Moliyaviy savodxonlik - investor kamida bozor asoslari hamda shaxsiy moliyani tushinish zarur;

• investitsion savodxonlik - investor investitsiyaning o'zi va jamiyat uchun zarurati, qanday investitsiya kiritish mumkinligi, qaysi tarmoq, soha yoki instrumentlarga investitsiya qilish manfaatli ekanligi haqida tushunchaga ega bo'lishi zarur;

• media savodxonlik - axborot makonidagi to'g'ri va noto'g'ri ma'lumotlarni farqlay olishi hamda yaxshi va yomon axborotlar haqida mulahaza qila olishi zarur.

Ishonch:

• Bozorning alohida ishtirokchilariga ishonch - emitent kompaniyalar yoki davlat qimmatli qog'zlarini hamda xorijiy valyutalarga bo'lgan ishonch. Ushbu instrumentlarning daromadlilikligi, likvidligi hamda emitentning barqarorligi nazarda tutilmoqda;

• savdo tizimlariga ishonch - birja, depozitariy, brokerlar, dillerlar, fondlar, boshqaruvchi kompaniyalar, maslahatchilar va shukabalarining faoliyatiga ishonch nazarda tutilmoqda;

• makromoliyaviy muhitga ishonch - moliyaviy inqirozlari yoki davlat tizimining (milliy va xalqaro miqyosdasiyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy munosabatlarda) barqarorligi nazarda tutilmoqda.

Ijzat (imkoniyat):

• Texnologiyalarga ijozat – savdo jarayonlaridainternet tarmog‘iga, kompyuter texnikasiga va aqlli zamonaviy uskunalarga kirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlari nazarda tutilmoqda;

• moliyaviy xizmatlar ijozat - sarmoya kiritish uchun yo‘nalishlar va mexanizmlarning oson, soda va investor manfaatlari uchun ishlashi hamda tizimlashtirilganligi va o‘zaro integratsiya darajasi nazarda tutilmoqda;

• mahsulotlarga ijozat - kerakli bo‘lgan mahsulotlar ya’ni moliyaviy instrumentlarning mavjudligi hamda ularning diversifikatsiya darajasi nazarda tutilmoqda;

• axborotlar - investitsiya uchun zaruriy ma’lumotlar olish imkoniyatlari, ochiq ma’lumotlarga egalik qilish nazarda tutilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki kapital bozorida chakana investorlarning faoliyati daromadlar olishga yo‘naltirilgan, ishonchli hamda tartibli bo‘lishi uchun ushbu omillar jamlansa investor kiritayorgan investitsiyasidan daromad olishi yuqori, risk darasi past, faoliyati oson hamda tartibli bo‘lish ehtimoli yuqorishlashadi. Bundan tashqari, yoqorida sanab o‘tgan omillardan tashqari ichki chakana investorlarning kapital bozorida faolligiga ta’sir ko‘rsatadigan yana bir asosiy omil bu ularning daromadlarining yetariligi bo‘ib hisoblanadi. Ya’ni chakana investorlar o‘zlarining ehtiyojlaridan ortiq qismini jamg‘arishi yoki investitsiyalarga yo‘naltirishi bizga iqtisodiyot nazariyasidan ma’lumdir. Hozirgi davrda ham ushbu tushuncha o‘z dolzarbligini yo‘qotmaganligining isboti sifatida quyidagi jadvalda aholining daromadligi bir-biridan keskin farq qiluvchi mamlakatlardagi aholining kapital bozorida faolligini ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

1-jadval


Ba’zi mamlakatlarda chakana investorlar daromadlilik darajasi va kapital bozorida faolligi ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	AQSh	BB	Xitoy	Hindiston	Braziliya	Indonesiya
Aksiyalar bozorida chakana investorlarning ulushi (aholi soniga nisbatan foizda)[14]	55	33	13	3	2	1
O‘rtacha oylik ish haqi (AQSh dollarida)[15]	4117,4	2636,4	1056,4	535,5	381,7	330,9
Aholi jon boshiga YaIM (PPP** AQSh dollarida) [16]	69287,5	49675,3	19338,2	7333,5	16056,0	12904,3

**purchasing power parity-xarid qobiliyati pariteti

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, aholining o'rtacha daromadi yuqori bo'lgan mamlakatlarda kapital bozorida xususan aksiyalar bozorida chakana investorlar faolligi yuqori va aksincha aholining o'rtacha daromadi past bo'lgan mamlakatlarda esa juda pastligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bundan tashqari, kapital bozorida chakana investorlarning faolligi yuqori bo'lgan mamlakatlarda aholi jon boshiga YaIM yuqoriligi, ushbu mamlakatlarda chakana investorlarning mamlakat iqtisodiyotiga hamda emitentlariga bo'lgan ishonchning kuchliligini ham sabab qilib ko'rsatish mumkin.

Bugungi kunda moliya bozorida yangi savdo tizimlari, shartlari va innovatsion instrumentlar hamda hizmatlarning joriy etilayotganli sababli moliya bozori segmentlari o'rtasida raqobat muhitining kuchayib borayotganligiga katta ta'sir ko'rsatmoqda yoki aksincha raqobatning kuchayishi yangi innovatsion yechimlar qilishga turtki bo'layotganligi ham ayni haqiqat. Shu sababli quyidagi 2-rasmda hozirgi zamonaviy bozor muhitida kapital bozorida chakana investorlarning faolligiga ta'sir ko'rsatayotgan tendensiyalarni ko'rib chiqishga harakat qilamiz.



2-rasm. Chakana investorlarning kapital bozorida investitsion faolligiga ta'sir ko'rsatayotgan zamonaviy tendensiyalar[13]

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan tendensiyalarning har biriga quyida qisqa izohlar bilan fikr berishga harakat qilamiz.

Bugungi zamonda investitsiyalarni nazorat qilishini kuchaytirishlariga ta'sir ko'rsatayotgan tendensiyalar:

• iqtisodiy muhit-bugungi kunda markaziy banklar tomonidan foiz stavkalarining tushirib borilayotganligi sababli jahonda kapital bozoriga chakana investorlar tomonidan investitsiya kiritishga bo'lgan qiziqishning oshib

borishinatijasida insonlar pullarini saqlashdan ko‘ra investitsiyaga yo‘naltirishni ma’qul ko‘rayotganligidir;

- texnologik yutuqlar-bugungi kunda onlayn-savdo imkoniyatlarining kengayib borishi natijasida dunyoning istalgan joyidan istalgan moliyaviy instrumentlar bilan savdolarida qatnashish imkoniyatining mavjudligi;

- inqiroz yoki riskli holatlar bo‘yicha tajriba – “Covid-19” va Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozlariga o‘xshash davrlarda insonlarda moliyaviy resurslarini zararsiz (yoki minimal zarar bilan) saqlash imkoniyatlarini qidirib topishga bo‘lgan harakatlarning oshishi;

- belgilangan nafaqalarni kamayishi – ayniqsa liberal iqtisodiyot modelidagi mamlakatlarda borgan sari ijtimoiy nafaqalarning kamayib borayotganligi kelajak uchun moliyaviy mustaqil bo‘lish majburiyati kuchaytirdi hamda ortiqcha resurslarini kapital bozoriga yo‘naltirish zaruratini oshirdi.

Investorlarni jalb etishga ta’sir ko‘rsatayotgan yangi biznes modellar va platformalar:

- komision to‘lovlarning miqdori-bugungi kunda jahonda ko‘plab onlayn savdo platformalari “0” yoki juda past miqdorda brokerlik haqlari evaziga faoliyat yuritayotganligi chakana investorlarga savdo jarayonlari natijalariga ko‘ra olishlari mumkin bo‘lgan daromadlarini yanada ko‘paytirish uchun zamin yaratmoqda;

- maslahatlar-savdo platformalarida investitsiya qilishni o‘rganish yoki maslahat olish imkoniyatini yaratadigan bo‘limlarning yaratilishi, mutaxassislardan yoki “Robo-Advisor”lardan tahliliy ma’lumotlarni olish imkoniyatlari;

- qulay dasturlar va platformalar-bank, investitsiya, to‘lov xizmatlarini, investitsion faoliyatni o‘rganish, axborotlar bilan ta’minlash, bozorni tahlil qilish imkoniyatlari bir platformada jamlab berayotgan dasturlarni joriy etilayotganligi. Bundan tashqari platformalarning mahsus insonlar guruhlar uchun ishlab chiqilayotganligi chakana investorlar hajmining oshishiga sabab bo‘lmoqda.

Zamonaviy moliyaviy instrumentlar:

- bo‘linuvchi aksiyalar-yaqin yillargacha imkoniyati mavjud bo‘lmagan aksiyalar bir qisminigina sotib olish imkoniyatlarini yaratilganligi, bu esa moliyaviy resurslari kam bo‘lgan chakana investorlarning bir qancha kompaniyalar aksiyalaridan bir qismdan sotib olib o‘z portfellarini shakllantirish imkoniyatini yaratayotilayotganligi;

- muqobil fondlar -kapital bozorida ananaviy moliyaviy instrumentlar (aksiya, oligatsiya, derivativlar)dan tashqari chakana investorlarning moliyaviy resurslarini jamlash yo‘li bilan investitsion faoliyatga yo‘naltirish imkoniyatini

beradigan fondlar (venchur fondlar, xedj fondlar, birja savdo fondllar (ETF),...)ni tashkil qilinishi;

- kriptovalyutalar – ushbu instrumentlar bilan savdolarni brokerlik platformalari, to'lov tizimlari va hatto kriptovalyuta bankomatlari (kyoskalari) orqali amalga oshirish imkoniyatlarining yaratilayotganligi hisobiga ommalashib ketmoqda;

- shaxsiy portfolio-ilgari faqat yirik kapital egalari foydalangan shaxsiy portfelnı yaratish imkoniyatidan hozirda barcha chakana investorlar ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'layotganli, shaxsiy portfellarining indekslarini doimiy bilib turish imkoniyatlari bugungi kunda chakana investorlarnig kapital bozoridagi faolligiga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, O'zbekistonda chakana investorlar ko'lamini kapital bozorida oshirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mavzu doirasida olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida quyidagicha xulosalarga keldik:

Birinchidan, chakana investorlarning investitsion faoligini oshirishda aholi keng qatlamining moliyaviy savodxonlik darajasini ko'tarish;

Ikkinchidan, chakana investorlar faoligini oshirishda emitentlar va savdo tashkilotchilar tizimiga aholi keng qatlamining ishonchini kuchaytirish;

Uchinchidan, chakana investorlar uchun moliyaviy xizmatlar hamda moliyaviy instrumentlarning jozibador turlari, qulay savdo mexanizmalari hamda daromadli yo'nalishlar bo'yicha bozorni o'rganuvchi konsalting kompaniyari orqali ma'lumotlarni jamlab ular haqida keng ommani xabardor qilish;

O'zbekistonda yuqoridagi kabi masalalarning yechimi sifatida quyidagilar taklif qilishimiz mumkin:

Birinchidan, aholi keng qatlamining moliyaviy savodxonligini oshirishda yuqori o'rinlarda turuvchi mamalakatlar (Daniya, Norvegiya, Shvedsiyada 71% aholisi moliyaviy savodxon hisoblanadi)[17] tajribasidan foydalanish ya'ni, maktabning yuqori sinflarida moliyaviy savodxonlik darslarining majburiy fan sifatida o'tilishini amalga oshirish. Bundan tashqari, media maydonda Moliya vazirligi tomonidan moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha ishonchli va sodda axborotlarni keng ommaga yetkazish. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining moliyaviy savodxonlik bo'yicha axborot-ta'lim veb-sayti sayti haqida keng ommani tanishtirish va ushbu sayt o'quv materiallarini muntazam takomillashtirib, boyitib borish;

Ikkinchidan, Emitent hamda savdo tashkilotchilari haqida axborotlar ochiqqligini yanada kuchaytirish. Moliya vazirligining Korporativ axborot yagona portal hamda Ochiq ma'lumotlar portalining sayt ma'lumotlaridan emitent va savdo ishtirokchilari haqida barcha ma'lumotlarni doimiy yangilab ommalashtirib borish.

Uchinchidan, fond birjasidamoliyaviy instrumentlarning yangi turlari savdosini amalga oshirish bo'yicha ichki "benchmark"larni tashkil etish, moliya bozorida resurslar jalb qilishda bozor holatini baholash imkoniyatlariga ega xizmat ko'rsatadigan konsalting institutlari faoliyatini rivojlantirish. Bunda moliya bozori instrumentlarining har bir turi (kreditlar va fond bozori instrumentlari,...) bo'yicha bozorda aniq tahliliy hisob kitoblarga asoslangan ma'lumotlar bazasini shakllantirish va doimiy yangilab borish biznikcha mamalakatimizda kapital bozorida chakana investorlar faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Podgorny B. The Russian stock market as a social space: A theoretical basis. *Economic Annals-XXI* Volume 164, Issue 3-4, 22 June 2017, Pages 20-23
2. Johan Almenberg, Anna Dreber, Gender, stock market participation and financial literacy, *Economics Letters*, Volume 137, 2015, Pages 140-142, ISSN 0165-1765.
3. Ming Gao, No pain, no gain? Household beliefs and stock market participation, *Economics Letters*, Volume 181, 2019, Pages 81-84, ISSN 0165-1765, <https://doi.org/10.1016/j.econlet.2019.05.001>.
4. Maxmudov N.M., Avazov N.R. "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari": Ilmiy-ommabop risola. - T.: TDIU, 2019y. - 104 b.
5. Elmirzayev, S., & Omonov, S. (2020). DIVIDEND POLICY ANALYSIS IN DEVELOPED COUNTRIES AND DIVIDEND ARISTOCRATS. *International Finance and Accounting*, 2020(2), 22.
6. Muxamedov, F. (2019). Qimmatli qog'ozlar bozori savdo tizimlarining rivojlanish tendensiyalari tahlili va muammolari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, (4), 81-91.
7. Egamberdiyeva, S. R. (2021). Iqtisodiy islohotlar jarayonida investitsiyalar hisobini takomillashtirish masalalari. *Ekonomika i finansi (Uzbekistan)*, (4 (140)), 42-47.
8. Turobov, S. A., & Azamatova, G. I. (2020). The opportunities of digital economy and implementing it in the circumstances of Uzbekistan. *Theoretical & Applied Science*, (2), 533-537.

9. Turobov, S., Muzaffarova, K., Alimxanova, N., & Azamatova, G. (2020). Increasing the financial and investment potential of the households. Solid state technology, 63(6), 141-151.
10. <https://www.uzse.uz/boards/87>
11. <https://kun.uz/news/2022/10/04/respublika-valuta-birjasida-ilk-bor-valutaviy-fyuchers-operatsiyalari-joriy-etildi>
12. <https://www.thebalance.com/best-stock-trading-apps-4159415>
13. <https://www.bnymellon.com/us/en/insights/all-insights/the-future-of-capital-markets-democratization-of-retail-investing.html-ma'lumotlari-asosida-muallif-tomonidan-tayyorlangan>.
14. <https://www.worlddata.info/average-income.php>
15. https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.PCAP.PP.CD?most_recent_value_desc=true
16. https://www.gobankingrates.com/money/financial-literacy-around-the-world-top-10-countries-and-united-states/?utm_campaign=1162292&utm_source=yahoo.com&utm_content=5&utm_medium=rss
17. <https://www.elsevier.com>
18. <http://www.deponet.uz>
19. <http://www.uzse.uz>
20. <http://www.mf.uz>
21. <http://www.finlit.uz>